



O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish
respublika ilmiy-metodik markazi

Matnni anglash jarayonini tashkil etuvchi asosiy psixologik va lingvistik omillar hamda ularning o'zaro ta'siri

Hayitboyeva Sohiba Habibullayevna

Farg'ona viloyati Quva tumani 5- umumta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

XXI asr ko'nikmasi nima uchun kerak?



Insonning nutqiy faoliyati jarayonida matnni anglash — murakkab psixologik va lingvistik hodisa bo'lib, u o'quvchi yoki tinglovchining bilish, tafakkur va til kompetensiyasiga bevosita bog'liqdir.

Mazkur mavzu matnni anglash mexanizmlarini yanada chuqurroq o'rganish, inson tafakkurining til orqali qanday shakllanishini anglash, shuningdek, o'quvchilarda o'qish va tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish nuqtayi nazaridan dolzarbdir. Psixologik va lingvistik omillarning o'zaro ta'sirini tahlil qilish esa, matnni samarali anglash hamda uni to'g'ri talqin etish imkonini beradi.

MATNNI ANGLASH JARAYONI NIMA?

Matnni anglash — bu o'quvchi o'qigan so'z, gap va matn mazmunini tushunishi, uni o'z fikrlari bilan bog'lab, xulosa chiqarish jarayonidir.

Bu jarayon **ikki asosiy omilga** tayangan holda kechadi:



Psixologik omillar

Psixologik omillar — bu o'quvchining **ichki fikrlash, xotira, diqqat, idrok, tajriba** kabi ruhiy jarayonlarini ifodalaydi.

Asosiy psixologik omillar:

- **Diqqat** — o'quvchi matnga e'tibor qaratishi kerak; chalg'imaslik tushunishni osonlashtiradi.
- **Xotira** — o'qilgan ma'lumotni eslab qolish, keyingi fikrlar bilan bog'lash.
- **Tafakkur** — o'qilgan ma'noni tahlil qilish, sabab va natijani topish.
- **Tasavvur** — matnda tasvirlangan holatni ko'z oldiga keltira olish.




Lingvistik (til) omillar

Lingvistik omillar — bu **til birliklari** (soʻz, gap, gaplar orasidagi bogʻlanish) orqali maʼnoni tushunish bilan bogʻliq.

Asosiy lingvistik omillar:

- **Soʻz boyligi** – oʻquvchi soʻzlarning maʼnosini bilsa, matnni tezroq tushunadi.
- **Grammatika** – gap tuzilishini toʻgʻri anglash, kim nima qilayotganini bilish.
- **Matnning tuzilishi** – kirish, asosiy qism, xulosa qismlarini ajrata olish.
- **Mantiqiy bogʻlanish** – gaplar orasidagi sabab-natija, vaqt ketma-ketligini tushunish.



Psixologik va lingvistik omillarning o'zaro ta'siri

Bu ikki omil **bir-birini to'ldiradi**.

Masalan:

- O'quvchi yangi so'zni (lingvistik) ko'rsa, uni tasavvurida (psixologik) jonlantiradi.
- Gap ma'nosini tushunish uchun diqqat (psixologik) va grammatik bilim (lingvistik) birgalikda ishlaydi.

Demak, matnni to'liq anglash uchun o'quvchida ham **til bilimlari**, ham **ruhiy tayyorgarlik** bo'lishi kerak.



Quyida o'quvchilarning fikrlash (psixologik), so'z boyligi, grammatik bilim (lingvistik) hamda mantiqiy bog'lanishni aniqlash ko'nikmalarini rivojlantiruvchi topshiriqlarni ko'rib chiqamiz.

1-topshiriq: “Matnni o‘qib va javob bering”

Matn: Butun borliq, tabiat uyg'onadi. Daraxtlar gullaydi, qushlar sayraydi. Bolalar maktab hovlisida gullarga suv quyishadi. Quyosh iliq nurlarini sochadi.

Savollar:

- 1.Matn qaysi fasl haqida?
- 2.Matnda kimlar haqida so'z yuritilgan?
- 3.“Tabiat uyg'onadi” deganda nimani tushundingiz?
- 4.Quyoshga ta'rif bering.

Rivojlantiradi: diqqat, tafakkur, matndan asosiy fikrni ajratish.

Omillar: psixologik (tasavvur, xotira) + lingvistik (so'z ma'nosi, gap bog'lanishi).



2-topshiriq: “Gaplarni to‘ldiring”

1. Bahorda daraxtlar _____.
2. Qushlar _____.
3. Bolalar hovlida _____.
4. Quyosh _____.

Maqsad: o‘quvchining so‘z boyligini

faollashtirish, gap tuzilishini mustahkamlash.

Omilar: lingvistik (so‘z tanlash) + psixologik (xotira, diqqat).



3-topshiriq: “Asosiy g‘oyani toping”

O‘qituvchi matnni o‘qib beradi: “Do‘stlik — bu bir-biriga yordam berishdir. Yaxshi do‘st og‘ir paytda qo‘l uzatadi, quvonchni baham ko‘radi.”

Savollar:

- Matnning asosiy g‘oyasi nima?
- Yaxshi do‘st qanday bo‘ladi?
- Sen do‘stingga qachon yordam bergansan?

Maqsad: fikrni umumlashtirish, mantiqiy xulosa chiqarish.

Omilar: psixologik (tafakkur, empatiya) + lingvistik (ma‘no anglash).



4-topshiriq: “Rasm asosida hikoya tuz”

O‘quvchilarga bahor fasliga oid rasm beriladi (masalan, bolalar daraxt ekishyapti).

Vazifa:

1. Rasmda nimalar bo‘layotganini aytish.
2. Rasm asosida 3–5 gapli kichik hikoya tuzish.
3. Hikoyaga sarlavha qo‘yish.

Maqsad: tasavvur, mantiqiy izchillik, nutqni rivojlantirish.

Omillar: psixologik (tasavvur, tafakkur) + lingvistik (so‘z boyligi, gap tuzilishi).



5-topshiriq: “Savol-zanjir” (juftlikda ishlash)

O‘quvchilar juftlikda ishlaydi.

1-o‘quvchi kichik matnni o‘qiydi, 2-o‘quvchi unga 1 ta savol beradi.

So‘ng rollar almashadi.

Masalan:

Matn: “Bolalar daryo bo‘yida baliq tutishdi.”

Savol: “Bolalar qayerda edilar?”

Maqsad: diqqat va eslab qolish qobiliyatini mustahkamlash.

Omillar: psixologik (xotira, diqqat) + lingvistik (savol tuzish qobiliyati).

6-topshiriq: “Gaplarni tartibga keltiring”

Quyidagi gaplarni to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtiring:

1. Bolalar hovlida o‘yin o‘ynashdi.
2. Quyosh chiqdiyu havo isidi.
3. Ular maktabga ketishdi.

To‘g‘ri tartib: **xxxxx**

Maqsad: mantiqiy fikrlash va matn tuzilishini tushunish.

Omillar: psixologik (mantiqiy tartib) + lingvistik (gap bog‘lanishi).



7-topshiriq: “So‘zdan gap, gapdan matn tuz”

O‘qituvchi 3 ta so‘z beradi: **qush, osmon, uchmoq**.

O‘quvchilar:

1. Bu so‘zlardan 1 ta gap tuzadilar.
2. So‘ng shu gap asosida 2–3 gapli kichik matn yozadilar.

Maqsad: ijodiy fikrlashni va til orqali ifodani rivojlantirish.

Omillar: lingvistik (so‘z birikmasi, gap) + psixologik (tasavvur, tafakkur).

8-topshiriq: “Matndan xulosa chiqar”

Matn:

“Yomg‘ir yog‘di. Daraxtlar barglari yuvildi. Havo tozalandi.”


Savollar:

Matndan qanday xulosa chiqara olasan?

Yomg‘irdan keyin tabiatda qanday o‘zgarish bo‘ladi?

Maqsad: matndan umumiy g‘oya chiqarish, tahliliy fikrlash.

Omillar: psixologik (tafakkur) + lingvistik (ma’no anglash).



9-topshiriq: Rasmga mos ibora toping



Xulosa

Boshlang'ich sinflarda matnni anglash jarayonini rivojlantirish – bu nafaqat o'qish savodxonligi, ona tili fanlarini o'qitish masalasi emas, balki boshqa fanlar: matematikada matnli masalalar va ularni tushunishlarini, tabiiy fandan axborot matnlarini tahlil qila olish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Matnni anglash o'quvchilarda barqaror aqliy faoliyatini rivojlantirishga hissa qo'shish masalasidir. O'quvchi matnni anglasa va zarur paytda uni hayotda qo'llay olsa u jamiyatning faol a'zosi sifatida shakllanadi.

E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!